

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIN
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA ISTITUTI
BIOLOGIYA KAFEDRASI**

BOTANIKA FANI

Mavzu: ANDROTSEY

Fan o'qituvchisi: b.f.n. Fayziyev V.B.

Chirchiq-2019

Agar sen nimanudir qilayotgan bo‘lsang,
yaxshilab bajar. Yaxshi bajarish qo‘lingdan
kelmasa yoki xoxlamasang, yaxshisi, u ishni
yig’ishtirib qo‘y.


**Buyuk rus yozuvchisi
Lev Nikolayevich Tolstoy**

DARS REJASI:

- Androtseyning umumiy ta'rifi.
- Changchilarning kelib chiqishi va evolyutsiyasi.
- Changdon va mikrosporangiyning rivojlanishi.
- **Tayanch iboralar:** androsey, gul, tuguncha, changchi, urug'chi, tuguncha, sporagnez, gametognez, gulqo'rg'on, aktinomorf, zigomorf.

ANDROTSEY:

- Bitta gulagi changchilar soni (yig'indisi) **androtseyni** (yunon. a n d r o s —erkak, o y k o s — uy) tashkil etadi.




Changdon va changining tuzilishi:

A – chanchi; Б – changdon (kondalang kesimi); 1 – chnagchi ipi (filament); 2 – chnagdon; 3 – bog'lovchi; 4 – bog'lovch ust o'simtasi; 5 – o'tkazuvchi nay; 6 – chang uyasi (mikrosporangiy); 7 – teka (yarmi); 8 – chang donasi bilan ochilgan teka; 9 – chang xaltachasi devoiri

GULDA JOYLASHISHI:

- Gulda changchilarning miqdori ***har xil bo'lib***, ular sodda o'simliklarda ***spiral***, rivojlangan o'simliklarda ***halqa*** (doira) shaklida joylashadi.



OLIGOMER ANDROTSEY:

- Orxideyadoshlar oilasida 1—3, sabsargulda — 3, murakkabdoshlarda — 5, piyozdoshlarda — 6, kapalakdoshlarda — 10. Bunday androtsey ***oligomer*** (yunon, o l i g o s — oz, kam, m e r o s — bo'lak) androtsey deb ataladi.




POLIMER ANDROTSEY:

- Ba'zi o'simliklarda changchilar soni juda ham ko'p (masalan, dukkakdoshlar oilasidan bo'lgan **mimozalar**). Gulda androtseylar soni ko'p bo'lsa **polimer** (yunon. p o l e — ko'p, m e r o s — bo'lak) deb ataladi.


Androtseyning evolyusiyasi polimerdan oligomerga borgan.

ANDROTSEY XILLARI:

- 
- To'rt stillik (ustunchali), butguldoshlar
 - Ikki stillik, labguldoshlar
 - Ikki to'dali, dukkakdoshlar
 - Yopishib naycha hosil qiladigan, murakkabguldoshlar

ANDROTSEY XILLARI:

- Androsey xillari:



CHANGCHI IPLARI:

- Changchilar iplarining *uzun* va *kaltaligi* bilan ham *farqlanadi*. Masalan, butguldoshlarda — 2 qisqa va 4 uzun, labguldoshlarda — 2 uzun va 2 qisqa bandli changchilar bo'ladi.



CHANGCHI IPLARI:

- Ba'zi oilalarda *changchi bandlari tutashgan*. Tropik o'simlik *Meliaccae* oilasining vakillarida changchi bir-biri bilan tutashib, changchi naychalarini hosil qiladi.



CHANGCHI IPLARI:

- Kapalakdoshlarda 9 changchi tutashadi. Bittasi esa ozod holda qoladi.




CHANGCHI IPLARI:

- Talaygina o'simliklarda *changchi* ipi bandi bilan *changdonlar* qo'shib ketadi (*murakkabguldoshlar, qovoqguldoshlar*).



CHANGCHI IPLARI:

- Changchi ipi ba'zan juda ham ***uzun bo'lib, gulqo'rg'onan*** chiqib turadi, ***ayrim hollarda ingichka, qisqa*** (kartoshkada) yoki ***mutlaqo taraqqiy etmaydi***. Ular ***yumaloq, ipsimon, yassi*** yoki ***keng*** (piyozdoshlarda) ***tukchalar*** bilan qoplangan (***sigirquyruq, chinnigul***).



ANDROTSEYNING AHAMIYATI:


- O‘z davrida *K. Linney* changchilarning turli-tuman shaklda bo‘lishiga asoslanib, o‘zining sun’iy sistemasini tuzishga muyassar bo‘lgan.



Karl Linney


ANDROTSEYNING TUZILISHI:

- Har bir changchi, *changchi ipi* va *changdondan* iborat.



CHANGCHILARNINI OZIQLANISHI:

- Yopiq-urug'li o'simliklarning aksariyatida changchilar, ularning katta kichikligidan qat'i nazar, faqat bitta (tomirlanmaydigan) ***o'tkazuvchi bog'lamga*** ega. Changchilar shu bog'lamdan oziqlanadi.




CHANGDONNING TUZILISHI:

- Changdonning ikkita uyasi yoki xonasi ***boshlang'ich ip*** bilan tutashgan. Ularning ***har bir yarim bo'lagi teka*** deb ataladigan to'siq bilan chang xonasiga bo'linadi, keyinchalik bu xonalarda (rasm) ***mikrosporalar*** yoki ***changchilar*** rivojlanadi.



CHANGDONNING TUZILISHI:

- Changdonda chang yetilgandan so'ng, uning uyasi yoki xonasidagi ***subepidermis*** hujayrasining yorilishi tufayli ***ochiladi***. Ochilgan changdon yorig'i gulning ichki tomoni (ginetseyga) qarasa ***introrz*** (lot. introrzum — ichkariga) changdon, tashqi tomonga qarasa ***ekstrorz*** (lot. e k s t r o r z u m — tashqariga) changdon deb ataladi.




CHANGCHILARNING JOYLASHUVI:

- Ko'pgina o'simliklarda changchilar gulning boshqa qismlari bilan qo'shib ketadi. Masalan, ***oraxisguldoshlarda*** changchilar ***ginetsey*** ustunchasi bilan birikadi, boshqa o'simliklarda changchi iplarining pastki qismi ***gultojga*** yoki ***gulqo'rg'on*** bilan qo'shiladi (***labguldoshlar***, ***atirguldoshlar*** va boshqa o'simliklar).



CHANGCHI METAMORFOZI:

- Ba'zi o'simliklarda changchilar chang hosil qilish xususiyatini yo'qotib, **bargsimon** yoki **nektar** holiga aylanib qolgan. Bunday naslsiz changchilar **staminodiy** (lot. s t a m e n — erkaklik ip; yunon. e d o s — tus, qiyofa) deb ataladi (**chinnigul**, **shoyigul**, **atirgul** va boshqa o'simliklarda).



ANDROTSEYNING VAZIFALARI:

Changlanish uchun zarur chang
hosil qilish



Hashorotlarni jalb etish



Akatsiya, mimosa,
evkalipt

ANDROTSEY EVOLYUTSIYASI:

- Ko'pchilik olimlarning fikricha, hozirgi *yopiq urug'li o'simliklarning changchilar*, *ochiq urug'li* sodda ajdodlari mikrosporofillarining *reduksiyalanishidan* yuzaga kelgan. Demak, eng qadimgi o'simliklar changchilarining shakli *bargchaga* o'xshash *yassi bo'lgan*. Keyingi vaqtda xuddi shunday shakl tuzilishga ega bo'lgan o'simliklar *ko'pmevalilar* orasidan ham topilgan.

ANDROTSEY EVOLYUTSIYASI:


- 1942 yili Fidji orolidan *Degeneria vitiensis* degan o'simlik qazilma holida topilgan. Bu daraxtsimon o'simlikning gulidagi androtseylar soni 30—40 ta bo'lган.



Degeneria vitiensis

ANDROTSEY EVOLYUTSIYASI:


- Ular *yassi* va *keng changchilardan* iborat bo'lib, changchilarning o'rtasidan *uchta o'tkazuvchi bog'lam* o'tgan. Changchilarning *ostida bir juft sporangiy* joylashgan. Ularda *changchi*, *chang ipi*, *changdon* va *bog'lovchi iplar takomillashmagan*. Evolyusiyaning keyingi bosqichida *yassi changchilar* ixtisoslashib *chang ipi*, *boshlang'ich* va *changdonga* aylangan.



Changchilar evolyutsiyasi: 1-sodda changchilarning Degeneriada hosil bo'lishi; 2-6-yopiq urug'li o'simliklardagi chanchilarning rivojlanishi.


ANDROTSEY EVOLYUTSIYASI:

- Hozirgi yopiq urug'li o'simliklarning ko'pchiligidagi *changdonning ikkala yarmi bir-biriga qo'shib, to'rt xonali changdonga* aylangan va changchining *uchida* ya'ni apeksida joylashgan.




MIKROSPOROGNEZ:

- Mikrosporalarning ona hujayralardan hosil bo'lish jarayoniga **mikrosporogenez** (mikrospora — chang; yunon. генезис — hosil bo'lish) deb ataladi.




MIKROSPOROFILL:

- Yopiq urug'li o'simliklarda changchilar **mikrosporofill** hisoblanadi. Changchilar **mikrosporangiyda** ya'ni **changdon** va **uning uyalarida** rivojlanadi.




CHANGDON XILLARI:

- *Changdon* changchi ipining ustki qismida joylashgan asosan *ikki palladan* iborat. U xilma-xil masalan, *silkinmaydigan* yoki *silkinuvchi*, *tebranuvchi* (*g'allasimonlar*, *liliya* va boshqalarda) bo'lishi mumkin.



MIKROSPOROGNEZ:


- Ontogenezining dastlabki davrida ***changdon hujayralari***, ***bir xil bo'lib***, keyinchalik ***subepidermik*** hujayralar takomillashib ***tashqi*** va ***ichki*** qavatga bo'linadi.
- ***Ichki qavatdan*** changchini hosil qiluvchi ***arxespor*** to'qimasi, ***tashqi qavati*** – (parietal — lot. *parietalis* — devor) esa ***changdon devori***, shuningdek changchingning oziqlanishiga sarf bo'ladigan ***hujayralarga*** aylanadi.



Chang xonalarining rivojlanishi:
ep — epiderma; en — endotesiy;
ch — chang; t — tapetum.

MIKROSPOROGNEZ:


- Parietal qavatni hosil qiluvchi boshlang'ich to'qima markazga intiluvchi yo'nalishda **periklinal** yoki **tangental** (uzunasiga, bo'yiga) va **antiklinal** (yunon. a n t i — qarshi, k l i n o — egilish, bukilish) bo'linib, **uch-to'rt hujayra** qavati yuzaga keladi. Bu, o'z navbatida, **vertikal** va **gorizontal** bo'linadi. Natijada **uch qavatdan** tashkil topgan (to'rt uyali, chanoqli) **changdon** hosil bo'ladi. Changdonning **usti epidermis**, uning **osti endotsetiy** (fibroz) va **ichki tapatum** (yunon. ichki parda) hujayra qavatlaridan iborat.



Changdon qavatlarining rivojlanishi: *ep* — epiderma;
en — endotsetiy; *ch* — chang; *t* — tapetum.


MIKROSPOROGNEZ:

- Yopiq urug'li o'simliklarda ***tapetum*** hujayrasining yadrosi ***mitoz*** ***bo'linib***, ***tukchali*** va ***amebond*** hujayralar hosil qiladi. ***Tapetum hujayralari*** quyuq ***sitoplazmadan*** iborat. Bu hujayralar ona ***mikrospora*** to'qimalariga ***oziq moddalarni*** o'tkazishda muhim fiziologik ahamiyatga ega.




MIKROSPOROGNEZ:

- *Endotsetiy* — *mikrosporangiy* (changdon)ning eng tashqi qavatini tashkil etadi. Uning *ichki qatlam* hujayralaridan ko‘p miqdorda *fibroz* (tolalar) hosil bo‘ladi. Changdon yetilgan paytda *fibroz qavatining* protoplazmatik suyuqligi *tez quriydi* va changdonning ikkala pallasining *yorilishiga* sabab bo‘ladi.



MIKROSPOROGNEZ:

- Endotsetiy ostida **1—3 qator** mayda **hujayralardan** tashkil topgan **o'rta qavat** joylashgan. **Mikrosporalar** hosil bo'lish vaqtida **o'rta qatlam hujayralari** yemirilib **mikrosporaga** oziq bo'ladi.




MIKROSPOROGNEZ:

- Changdonning ichki ***tapetum*** qoplovchi qatlami muhim fiziologik ahamiyatga ega, chunki ***spora hosil qiluvchi to'qimaga*** oziq moddalar shu qatlam orqali o'tadi. ***Tapetum hujayralari quyuq*** va ***ko'p protoplazma*** suyuqligiga ega. Chang tashkil topa boshlagan paytda ularning ***protoplazmasi*** bir necha bor bo'linib, natijada ***arxesporiy protoplazma suyuqligi*** bilan o'raladi.

MIKROSPOROGNEZ:

- *Arxesporiy* hujayralari bo'linib, mikrosporalarning *ona hujayralarini* hosil qilish paytida *tapetum eriydi*, ba'zan ayrim oilalarda tapetumning faqat po'sti erib, protoplasta *quyuqlashadi* va *mikrospora* uchun oziq bo'ladi.



CHANGLAR (MIKROSPORALAR):

- *Mikrosporalar ona mikrospora* hujayralarining reduksion (meyoz) bo'linishi vositasida vujudga keladi. Bu jarayon quyidagi yo'llarda amalga oshadi:

Suktsessiv (birin-ketin)

Simultan (birdaniga)


Oraliq

SUKTSESSIV BO'LINISH:

- Suktessiv bo'linishning birinchi davrida *hujayra* to'siqlar bilan ajraladi va *diada* hujayralar hosil bo'ladi.
- Bu jarayon ikkinchi marta *takrorlanganda* hujayra to'siqlar hosil qilib *to'rtta mikrospora* (chang) yuzaga keladi.
- Mikrosporalarning *suktessiv tip* bilan hosil bo'lishi *bir pallali* o'simliklarga xos xususiyatdir.
- *Ikkipallali o'simliklarda* bu jarayon *simultan* tipda boradi.

CHANGCHILARNING JOYLASHISHI:

- Hosil bo'lgan changlar ko'pchilik o'simliklarda bir-biridan to'siqlar bilan ajralgan. Lekin, ba'zi o'simliklarda masalan, *lux*, *rosyanka*, *elodeya* va boshqalarda **tetrasporalar** changdonda changchilar to'plamini hosil qiladi.



CHANGCHILARNING JOYLASHISHI:

- *Mimoza larda* esa har bir changdon uyasida (xonasida) **64 changchi** to'planadi.



CHANGCHILARNING JOYLASHISHI:


- Tropik o'rmonlarda o'suvchi *orxideyadoshlarning* gullari maxsus hasharotlar bilan changlanishga moslashgan bo'lib, ularning *har qaysi changdon* uyasidagi changlar *vissin* degan yopishqoq modda bilan yelimlanib *polliniy* (lot. pollen.— chang) deb ataladigan uyum hosil qiladi.



Falenopsis arxideyasining polliniysi

CHANG:

- Chang — (mikrospora) — **yopiq urug'li o'simliklarning erkak gametofiti** hisoblanadi. Changning shakli, katta - kichikligi, tuzilishi har xildir. Ular o'simliklarning har bir turida doimiy holda bo'lib, nasldan-naslga o'tadi.




Yopiq urug'li o'simliklarining changining tuzilishi, rivojlanishi:

(A — mikrospora, Б — chang donasi, В — chan naychasining hosil bo'lishi, Г — chang naychasining bir qismi): 1 — ekzina, 2 — intina, 3 — chang nayini hosil qiluvchi vegetative hujayra, вегетативная клетка, 4 — generative hujayra, 5 — spermiiy

CHANG MORFOLOGIYASI:

- Changlar sharcha, ellips, tayoqcha, ipga o'xshab ko'rindi.




CHANG O'LCHAMI:

- Changlarning katta-kichikligi ham har xil: masalan, *gavzabondoshlar* oilasida **240 мкм**, *qovoqdoshlarda* esa biroz yirikroq. Umuman, *sodda oilalarda* ancha *yirik changlar*, *rivojlangan oilalarda kichik changlar* bo'ladi.




CHANGNING TUZILISHI:

- Chang po'sti (sporoderm) asosan ikki qismdan tashkil topgan, *ichki po'sti* — *intina* va *tashqi po'sti* — *ekzina*. Intina *yupqa*, asosan *pektin* moddasidan tuzilgan.



CHANGNING TARKIBI:


- *Ekzina* intinaga nisbatan *ancha qalin* bo'lib, *kutinlashgan* va *turg'unlashgan*. Tarkibida uglevodlardan *sporopolenin* bor. Bu modda *ishqor* va *kislotalarda* erimaydi, shuning uchun ham juda pishshiq.



Sporopollenining molekulyar strukturasi

CHANGNING TUZILISHI:

- Ekzina o'z navbatida *ikki qismdan* iborat: *tashqi qavati sekzin* – ekzinaning *eng mustahkam* qavati va *ichki qavati nekzisdan* iborat. *Sekzin* tuzilishi jihatidan nihoyat xilma-xil bo'lib, u *har xil bo'rtmachalardan* tashqari *tikanaklar*, *jig'alar* bilan qoplangan. Taksonlarni *sistemaga solishda* ana shu belgilardan foydalilaniladi.




Mikrosporaning anatomik kesmasi

CHANGNING TUZILISHI:

- Sekzinada bir qancha **teshikchalar** ham bor. Bu teshikchalar **apertura** (lot. a p e r t u s — ochiq) deb ataladi.
- Aperturalarning shakli va joylashishi har xil. Shakl jihatdan ular **pora** — **teshikchalar** va **chiziqli egatlardan iborat**.
- Changchilarning **po'stidagi pora** va **chiziqli egatlar** ham shakl jihatdan har xil.
- **Bir porali** va **bir chiziqli egatli** changlar **ochiqurug'li o'simliklarga** xos belgidir.


CHANGNING TUZILISHI:

- *Yopiqurug'li* o'simliklar orasida *bir porali* va *bir chiziqli egatli* changlar *ko'pmevalilardan magnoliyadoshlar* oilasining vakillarida uchraydi.



CHANGNING TUZILISHI:

- Evolyusiya jarayonida *bir porali* va *bir chiziqli* yoki *bir egatli* changlardan *uch porali* va *uch egatli changlar* va nihoyat: ulardan *ko'p porali* va *ko'p egatli* changlar taraqqiy etgan.



CHANGNING TUZILISHI:

- Aksariyat *ikkipallali o'simliklarda* chang ***uch egatli***, *bir pallalilarda* esa asosan ***bir egatli*** chang uchraydi.



www.bigstock.com · 203711143


www.bigstock.com · 503711143

CHANGNI O'RGANUVCHI FAN:

- Changlar turli-tuman shaklda bo'lishi, shu bilan birga ularning chidamliligi, o'zgarmasdan barqaror bo'lib, o'z shaklini saqlab qolishi, ularni har tomonlama chuqur tekshirishga imkon beradi. Shu sababdan bo'lsa kerak, 30-yillardan boshlab botanikaning yana bir yosh tarmog'i **polinologiya** fani taraqqiy etdi. Chang har xil usullar bilan tayyorlanib, keyin yorig'lik yoki elektron mikroskopiya yordamida tekshirilib o'r ganiladi.

CHANGNING ICHKI TUZILISHI:


- Mikrosporangiyda **mikrosporani** changga aylanishi vaqtida, tashkil topgan **changlar** yadrosi **mitoz yo'li** bilan ikkiga bo'linadi. Chang tarkibidagi tsitoplazma ham **kichik** va **katta hujayralarga** ajraladi, bu hujayralar yupqa parda bilan bir-biridan ajralib turadi.



Mikrospora, chang va uning o'sishi.

A — mikrospora; B — chang donachalari; U — sekzin; 2 — nekzin; 3 — vegetative hujayra; 4 — generativ hujayra.

CHANGNING ICHKI TUZILISHI:




- Ularning *kichkinasi generativ* va *kattasi* esa *vegetativ* yoki *sifonogen* hujayra deb ataladi. Generativ hujayraning *yadrosi* kelgusida *ikkiga bo'linib*, ikkita *sperma* hujayralariga aylanadi (rasm, 5) va urug'chini urug'lantirishda ishtirok etadi. *Sifonogen (vegetativ) hujayradan chang naychasi* o'sib chiqadi, lekin uning yadrosi urug'lantirishda ishtirok etmaydi.

V — chang naychasining hosil bo'lishi; G—chang naychasining bir qismi; 3 — vegetativ hujayra; 4 — generativ hujayra; 5 — ikkita sperma.

ERKAK GAMETOFIT TARAQQIYOTI:

- *Yopiq urug'li* o'simliklarning *erkak gametofiti* (generativ hujayrasi) *ochiq urug'li* o'simliklardan, *ochiq urug'li* o'simliklar esa *paporotniksimonlarning* gametofitidan kelib chiqqan deb qaraladi.



ERKAK GAMETOFIT TARAQQIYOTI:

- Yopiq urug'li o'simliklarning gullarida *changchilarni* himoya qiladigan ba'zi moslamalari bo'ladi. Masalan, *changchini suvdan, namdan himoya* qilish uchun *gulsapsarlarda* ular *tumshuqchaning parraklari tagida* yashirinadi.



ERKAK GAMETOFIT TARAQQIYOTI:

- Yomg'ir yoqqanda *gulqo'rg'on barglari* bir-biriga birikib va ***ba'zan yumilib*** changchini namdan saqlab qoladi (***qoqi o't, sachratqi, zafar, cho'l zubturumi*** va boshqalarda).



MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIG'I:

- Mikrosporogenez va uning ahamiyati.

**E'TIBORINGIZ UCHUN
RAHMAT!**